



## BADIIY MATNDA "ALDANGAN KUTILGANLIK"

**Akbarova Munira Shavkatovna,**

Qo'qon DU dotsenti, f.f.b.f.d., PhD, mustaqil izlanuvchi (DSc).

ORCID: 0000-0002-4837-4883

Email: [akbarovam1989@mail.ru](mailto:akbarovam1989@mail.ru)

+998916831585

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1714>

### MAQOLA HAQIDA/О СТАТЬЕ

**Qabul qilindi:** 16-iyun 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 18-iyun 2026-yil

**Jurnal soni:** 18-C

**Maqola raqami:** 4

### KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

badiiy matn, aldangan kutilganlik, lingvopoetika, poetik aktualizatsiya, pragmatika, semantika, uslubiy vositalar, estetik ta'sir, matn strukturasi, o'quvchi qabul jarayoni

### ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada badiiy matnda aldangan kutilganlik hodisasining yuzaga kelish mexanizmlari, uning lingvopoetik xususiyatlari hamda o'quvchi estetik qabuliga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda badiiy matnda muallif tomonidan yaratiladigan kutilma va uning buzilishi orqali yuzaga keladigan semantik hamda pragmatik effektlar yoritilgan. Shuningdek, aldangan kutilganlik hodisasining matn strukturasi, uslubiy vositalar va poetik aktualizatsiya bilan uzviy bog'liqligi ilmiy misollar asosida asoslab berilgan. Natijada ushbu hodisaning badiiy ta'sirchanlikni kuchaytirish va o'quvchi diqqatini boshqarishdagi o'rni aniqlangan. Ushbu maqolada ko'tarilgan muammo zamonaviy lingvopoetikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, badiiy matnning idrok etilish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. "Aldangan kutilganlik" hodisasi nafaqat stilistik uslubiy vosita sifatida, balki matnning kognitiv va kommunikativ strukturasi belgilovchi muhim omil sifatida ham qaraladi. Tadqiqotda ushbu hodisaning yuzaga kelishida muallif tomonidan ongli ravishda yaratiladigan semantik yo'naltirish, o'quvchi ongida shakllanadigan ehtimollik modeli hamda uning buzilishi jarayonlari alohida tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada badiiy matnning ko'p qatlamli tabiati inobatga olinib, aldangan kutilganlikning mikro va makro darajadagi namoyon bo'lish shakllari yoritiladi. Mikro darajada bu hodisa alohida leksik birliklar, metaforik birikmalar va sintaktik konstruksiyalarda kuzatilsa, makro darajada syujet qurilishi, kompozitsion yechimlar va janr me'yorlarining buzilishi orqali amalga oshadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aldangan kutilganlik badiiy matnda faqat estetik effekt yaratib qolmay, balki o'quvchini faol interpretatsiya jarayoniga jalb etuvchi kognitiv mexanizm sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Bu esa matnning qabul qilish jarayonini dinamiklashtiradi, o'quvchining fikrlash faolligini oshiradi hamda badiiy asarning semantik sig'imini kengaytiradi. Bundan tashqari, ushbu hodisa zamonaviy adabiy jarayon, xususan postmodernistik matnlar uchun ham xos bo'lib, unda an'anaviy kutuvlar tizimi ataylab buzilishi orqali ko'p ma'nolilik va interpretativ ochiqlik ta'minlanadi. Shu jihatdan, "aldangan kutilganlik" hodisasi badiiy matnning nafaqat lingvistik, balki falsafiy-estetik tabiatini ham yoritishga imkon beradi.

### ABOUT THE PAPER

**Accepted:** 16 June 2026

**Approved:** 18 June 2026

**Volume:** 18-C

**Paper number:** 4

### KEYWORDS

literary text, deceived expectations, linguopoetics, poetic actualization, pragmatics, semantics, stylistic means, aesthetic effect, text structure, reader's perception process

### ANNOTATION

This article analyzes the mechanisms of the occurrence of the phenomenon of deceived expectations in a literary text, its linguopoetic properties and its impact on the reader's aesthetic perception. The study highlights the semantic and pragmatic effects that arise through the expectation created by the author in a literary text and its violation. Also, the inextricable connection of the phenomenon of deceived expectations with the text structure, stylistic means and poetic actualization is substantiated on the basis of scientific examples. As a result, the role of this phenomenon in enhancing artistic expressiveness and controlling the reader's attention is determined. The problem raised in this article is one of the current areas of modern linguopoetics, which serves to provide a deeper understanding of the mechanisms of perception of a literary text. The phenomenon of "deceived expectation" is considered not only as a stylistic and methodological tool, but also as an important factor determining the cognitive and communicative structure of the text. The study separately analyzes the semantic orientation consciously created by the author in the occurrence of this phenomenon, the probability model formed in the reader's mind, and the processes of its violation. Also, the article, taking into account the multilayered nature of the literary text, highlights the forms of manifestation of deceived expectation at the micro and macro levels. At the micro level, this phenomenon is observed in individual lexical units, metaphorical combinations, and syntactic constructions, while at the macro level it is realized through plot construction, compositional solutions, and violation of genre norms. The results of the study show that the phenomenon of false expectations not only creates an aesthetic effect in a literary text, but also plays an important role as a cognitive mechanism that involves the reader in the process of active interpretation. This dynamizes the process of perceiving the text, increases the reader's thinking activity, and expands the semantic capacity of the work of art. In addition, this phenomenon is also characteristic of the modern literary process, in particular, postmodernist texts, in which the deliberate violation of the system of traditional expectations provides for multiplicity and interpretative openness. In this regard, the phenomenon of "false expectations" allows us to shed light not only on the linguistic, but also on the philosophical and aesthetic nature of the literary text.

**Kirish.** Badiiy matnda "aldangan kutilganlik" hodisasini stilistik va lingvopoetik nuqtayi nazardan izohlashda rus va sovet stilistika maktabining yirik vakillaridan biri bo'lgan Ilya Galperin [2] qarashlari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Olimning stilistika va matn lingvistikasiga oid tadqiqotlarida badiiy nutqning ekspressivligi, normadan chekinish hodisasi hamda stilistik aktualizatsiya masalalari chuqur tahlil qilingan. Galperin badiiy matnning oddiy kommunikativ nutqdan farqlovchi asosiy belgilar qatoriga "foregrounding" - ya'ni stilistik markazlashuv hodisasini kiritadi. Olimning fikricha, poetik yoki badiiy nutqda ayrim til birliklari maxsus ajratib ko'rsatiladi, natijada ular o'quvchi diqqat markaziga chiqadi. Mazkur jarayon esa ko'pincha lingvistik norma va odatiy

kutilmaning buzilishi orqali amalga oshadi. Galperinning ta'kidlashicha, har qanday stilistik effektning asosida norma, normadan og'ish, ushbu og'ishning idrok qilinishi mexanizmi yotadi. Chunki o'quvchi matnning qabul qilish jarayonida til tizimining odatiy qonuniyatlariga tayanadi. Agar matnda kutilmagan birlik, noodatiy sintaktik qurilish yoki semantik nomuvofliqlik yuzaga kelsa, o'quvchi diqqati avtomatik ravishda aynan shu nuqtaga jamlanadi. Demak, "aldangan kutilganlik" stilistik markazlashuvning eng muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Galperin stilistikani "til birliklarining estetik va ekspressiv imkoniyatlarini o'rganuvchi fan" sifatida talqin qiladi. [2] Olimning konsepsiyasiga ko'ra, til sistemasida mavjud bo'lgan neytral

norma badiiy matnda ongli ravishda deformatsiyaga uchraydi. Natijada oddiy birlik estetik birlikka, kommunikativ nutq poetik nutqqa, avtomatlashgan qabul esa aktual idrokka aylanadi. Bu jarayonni Galperin "deviation" - ya'ni normadan og'ish orqali tushuntiradi. Olimning fikricha, normadan chekinishning o'zi maqsad emas; u o'quvchining kutuvini buzish orqali stilistik ta'sir hosil qilishi bilan ahamiyatlidir. Masalan, kundalik nutqda quyidagi birikmalar me'yoriy hisoblanadi: "sovuq shamol", "achchiq haqiqat", "qattiq ovoq". Biroq badiiy matnda muallif "jimjit qichqiriq", "muzlagan sukut", "ko'r quvonch" kabi birikmalarni qo'llashi mumkin. Bu yerda semantik moslik buziladi, o'quvchining odatiy kombinator kutuvi aldanadi, natijada birlik stilistik markazga aylanadi. Galperin bunday hodisani "foregrounding effect" sifatida izohlaydi. Galperin nazariyasida foregrounding oddiy ekspressivlik emas, balki matnning estetik tashkil etilish prinsipidir. Olimning ta'kidlashicha, badiiy matnda ayrim birliklar fon (background)dan ajralib chiqadi va "old plan"ga ko'tariladi. Aynan shu ajralish o'quvchi ongida kuchli poetik ta'sir uyg'otadi.

Yuri Lotman qarashlari **Claude Shannonning** axborot nazariyasi bilan ham muayyan umumiylikka ega. Shannon konsepsiyasiga ko'ra axborot miqdori kutilmaganlik darajasiga bog'liq, ehtimoligini yuqori bo'lgan birlik kam axborot beradi, ehtimoligini past birlik esa yuqori informativlikka ega bo'ladi. Lotman ushbu tamoyilni badiiy matnga tatbiq qiladi. Biroq u sof matematik modeldan farqli ravishda estetik kommunikatsiya masalasiga o'quvchi qarataadi. Chunki badiiy matnda yangilik, semantik murakkablik, poetik kod o'quvchi madaniy tajribasi bilan bog'liq holda idrok qilinadi. Shu sababli "aldangan kutilganlik" nafaqat lingvistik, balki madaniy-semiotik hodisa sifatida ham namoyon bo'ladi. Lotman nazariyasida o'quvchi passiv qabul qiluvchi emas, balki faol dekoder sifatida talqin qilinadi.[3] O'quvchi matn kodlarini yechadi, semantik bo'shliqlarni to'ldiradi, buzilgan prognozni qayta tiklaydi. Aynan shu jarayon badiiy kommunikatsiyaning estetik mohiyatini tashkil qiladi. "Aldangan kutilganlik" esa o'quvchini avtomatik qabuldan chiqaradi, matnga qayta murojaat qilishga majbur qiladi, ko'p qatlamli ma'no izlash jarayonini faollashtiradi. Natijada matnning semiotik sig'imi ortadi. Yuri Lotmaning semiotik qarashlari "aldangan kutilganlik" fenomenining lingvopoetik mohiyatini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. [4] Olimning konsepsiyasi quyidagi ilmiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi :

- badiiy matn prognoz va yangilik o'rtasidagi qarama-qarshilik asosida quriladi;
- estetik informativlik normaning buzilishi bilan bog'liq;
- o'quvchi kutuvining aldanishi poetik kommunikatsiyaning zarur sharti hisoblanadi;
- redundantlik va kutilmaganlikning optimal nisbati matnning badiiy samaradorligini ta'minlaydi.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqotda "aldangan kutilganlik" hodisasini o'rganishda kompleks lingvopoetik, stilistik va semiotik yondashuvlardan foydalanildi. Asosiy metodlar sifatida tavsifiy (deskriptiv) tahlil, kontekstual interpretatsiya hamda struktur-semantik tahlil usullari qo'llanildi. Badiiy matndagi normadan og'ish va kutilma buzilishi holatlari lingvistik birliklar (leksik, sintaktik, semantik) darajasida tahlil qilindi.

Shuningdek, pragmatik yondashuv asosida o'quvchi idroki va matnning qabul qilish jarayonidagi kognitiv mexanizmlar o'rganildi. Tadqiqotda Galperin, Lotman va Jakobsonning nazariy qarashlariga tayangan holda intertekstual va nazariy-qiyosiy metod ham qo'llanildi. Bu yondashuvlar fenomenning nafaqat til tizimi doirasida, balki estetik va kommunikativ jarayon sifatida ham talqin qilinishiga imkon berdi.

**Natijalar.** Olimning konsepsiyasiga ko'ra badiiy matnda estetik ta'sir norma va undan og'ish o'rtasidagi ziddiyat asosida yuzaga keladi, o'quvchi kutuvining buzilishi til birliklarini aktual holga keltiradi, foregrounding poetik nutqning asosiy tashkiliy prinsipi hisoblanadi.

Foregrounding quyidagi vositalar orqali yuzaga chiqadi:

- leksik nomuvofiqlik;
- sintaktik buzilish;
- grammatik deformatsiya;
- metaforik siljish;
- semantik paradoks;
- ritmik sinish;
- kutilmagan assotsiatsiya.

Semiotik yondashuvda Yuri Lotman [4] ushbu fenomenning matnning ichki kod tizimi bilan bog'laydi. Lotman nazariyasiga ko'ra, har qanday matn ikki qarama-qarshi tendensiya asosida quriladi: bir tomondan, u prognoz qilinadigan (redundant) elementlarni o'z ichiga oladi, ikkinchi tomondan esa, informativlikni oshiruvchi kutilmagan elementlarni hosil qiladi. Agar matn to'liq prognoz qilinadigan bo'lsa, u axborot qiymatini yo'qotadi; aksincha, to'liq kutilmaganlik esa tushunishni qiyinlashtiradi. Demak, kutishning aldanishi fenomeni redundantlik va yangilik o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlovchi mexanizm sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Pragmatik nuqtai nazardan, ushbu fenomen kommunikativ strategiya sifatida qaraladi. Muallif o'quvchining kutishlarini boshqarish orqali matnning ta'sirchanligini oshiradi: avval muayyan semantik yo'nalish shakllantiriladi, so'ng esa bu yo'nalish kutilmagan tarzda o'zgartiriladi. Natijada o'quvchi faol interpretatorga aylanadi va matn bilan interaktiv munosabatga kirishadi. Bu jarayon ayniqsa zamonaviy postmodern adabiyotda keng qo'llanilib, o'quvchi ongida ko'p qatlamli ma'no hosil qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, kutishning aldanishi fenomeni diskursiv darajada ham namoyon bo'ladi. U nafaqat alohida til birliklari (so'z, gap) darajasida, balki butun matn strukturasi – syujet rivoji, kompozitsiya, janr stereotiplarining buzilishi orqali ham yuzaga keladi. Masalan, detektiv asarda an'anaviy syujet modelining buzilishi yoki kutilmagan yakun (twist ending) ushbu fenomenning makrostruktural ko'rinishidir. Xulosa qilib aytganda, kutishning aldanishi fenomeni ko'p qatlamli va kompleks hodisa bo'lib, u quyidagi darajalarda o'z ifodasini topadi:

- lingvistik daraja (til birliklarining kutilmagan kombinatsiyasi);
- stilistik daraja (normadan og'ish orqali ekspressivlik);
- semiotik daraja (kod va axborot tizimi buzilishi);
- kognitiv daraja (prognoz va interpretatsiya jarayoni);
- pragmatik daraja (kommunikativ ta'sir strategiyasi);
- diskursiv daraja (matn va janr strukturasi o'zgarishlar).

Aynan ushbu ko'p qirrali xususiyat mazkur fenomenning badiiy matnning tahlil qilishda markaziy tushunchalardan biriga aylantiradi va uni zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning dolzarb obyektlaridan biri sifatida belgilaydi. Yuqoridagi nazariyalar asosida aytish mumkinki, badiiy matnda estetik ta'sir ko'pincha o'quvchi kutuvining buzilishi orqali yuzaga keladi. Muallif lingvistik norma va ehtimollikni ongli ravishda deformatsiya qilib, o'quvchini faol interpretatsiyaga undaydi. Natijada matnning poetik qudrati va estetik qiymati ortadi.

**Muhokama.** Mazkur vositalarning umumiy jihati shundaki, ular o'quvchining til tajribasiga zid keladi. Natijada matnning muayyan qismi alohida estetik yuklama oladi. Galperin ekspressivlikni ham normadan og'ish bilan bog'laydi. Olimning fikricha, oddiy nutq avtomatlashganligi sababli emotsional ta'sir kuchsiz bo'ladi. Badiiy nutqda esa kutilmagan birlik, nooddiy kombinatsiya, semantik dissonans o'quvchini "to'xtatib qo'yadi". Bu esa idrokning faollashuviga olib keladi. Shu ma'noda "kutishning buzilishi" idrokni faollashtiradi, matnning estetik qiymatini oshiradi, emotsional ta'sirni kuchaytiradi, o'quvchini interpretatsiyaga majbur qiladi. Galperin aynan mana shu jihatni stilistik effektning markaziy mexanizmi deb hisoblaydi. Roman Jakobson [6] hamda **Ilya Galperin** [2] qarashlari o'rtasida muhim nazariy yaqinlik mavjud. Jakobson poetik funksiyani "xabarni xabarning o'ziga yo'naltirish" deb talqin qilsa, Galperin ushbu jarayonning konkret stilistik mexanizmini foregrounding orqali tushuntiradi. Har ikki olim uchun ham poetiklik normadan chekinishda, estetik ta'sir kutilmaning buzilishida, badiiylik esa avtomatizmning parchalanishida namoyon bo'ladi. Biroq Galperinning yondashuvi stilistik tahlilga yaqinligi bilan ajralib turadi. U poetik effektini fonetik, morfologik, sintaktik, leksik-semantik sathlarda konkret til vositalari orqali izohlaydi. Galperin nazariyasi keyingi psixolingvistik tadqiqotlar bilan hamohangdir. Zamonaviy psixolingvistika inson nutqni qabul qilish jarayonida doimiy prognoz mexanizmidan foydalanishini tasdiqlaydi. O'quvchi keyingi so'zni, sintaktik davomni, semantik bog'lanishni oldindan taxmin qiladi. Normadan og'ish esa ushbu avtomatik prognozni buzadi va miyada qo'shimcha qayta ishlash jarayonini yuzaga keltiradi. Shu sababli foregrounding inson ongida kuchliroq iz qoldiradi. Demak, Galperinning stilistik markazlashuv nazariyasi nafaqat poetika, balki kognitiv tilshunoslik va psixolingvistika bilan ham uzviy bog'liqdir. Ilya Galperinning stilistik markazlashuv haqidagi qarashlari "kutishning buzilishi" hodisasining lingvopoetik mohiyatini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda aldangan kutilganlik hodisasi muallifning estetik niyatini amalga oshirishda muhim lingvopoetik vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu hodisa matnda o'quvchida muayyan kutish holatini shakllantirib, keyinchalik uning buzilishi orqali kuchli emotsional va semantik ta'sirni yuzaga keltiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aldangan kutilganlik badiiy matnning ta'sirchanligini oshirish, syujet dinamikasini kuchaytirish hamda o'quvchi diqqatini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur hodisaning stilistik, pragmatik va lingvopoetik jihatdan o'rganilishi badiiy matn tahlilining nazariy asoslarini boyitadi hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun yangi ilmiy yo'nalishlarni belgilaydi. Shuningdek, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, "aldangan kutilganlik" hodisasi badiiy matnning faqat individual stilistik xususiyati bo'lib qolmay, balki umumiy matn yaratilish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu hodisa orqali muallif o'zining estetik niyatini yanada murakkab, ko'p qatlamli va yashirin shaklda ifoda etadi. Natijada matnning semantik ochiqqligi ortadi hamda uning interpretatsion imkoniyatlari kengayadi.

Bundan tashqari, aldangan kutilganlik o'quvchi va matn o'rtasidagi interaktiv munosabatni kuchaytiradi, ya'ni o'quvchini passiv qabul qiluvchidan faol ma'no yaratuvchiga aylantiradi. Bu jarayon badiiy asarning kommunikativ qiymatini oshirib, uning estetik ta'sir kuchini

yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birga, mazkur hodisaning zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlardagi o'rni tobora kengayib borayotgani uning nafaqat stilistik, balki kognitiv va semiotik jihatdan ham chuqur o'rganilishi zarurligini ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – 502 с.
2. Гальперин И. Р. Стилистика английского языка. – М.: Высшая школа, 1977. – 334 с.
3. Долинин К. А. Стилистика французского языка. – Л.: Просвещение, 1978. – 120 с.
4. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – 384 с.
5. Шкловский В. Б. Теория прозы. – М.: Федерация, 1925. – 280 с.
6. Якобсон Р. Лингвистика и поэтика // Стил в языке. – М.: Прогресс, 1960. – С. 198–215.
7. Leech, G. N., & Short, M. H. Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. – London: Pearson Education, 2007. – 404 p.
8. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 499 p.
9. Widdowson, H. G. Stylistics and the Teaching of Literature. – London: Longman, 1975. – 154 p.
10. Van Dijk, T. A. Text and Context: Explorations in the Semantics and Pragmatics of Discourse. – London: Longman, 1977. – 261 p.
11. Akbarova, Munira Sh. Linguopoetic features of unusual compounds in the literary text. – Current Research Journal of Philological Sciences, 2022. – Vol. 3(5). – P. 73–76.
12. Akbarova, Munira Shavkatovna. Features of Linguopoetic Analysis of Literary Text. – International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology, 2022.
13. Nizamova, S., & Akbarova, M. Lexical-semantic analysis of some nicknames. – Theoretical & Applied Science, 2021. – No. 10. – P. 563–565.
14. Eco, U. The Role of the Reader: Explorations in the Semiotics of Texts. – Bloomington: Indiana University Press, 1979. – 288 p.
15. Todorov, T. The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre. – Ithaca: Cornell University Press, 1975. – 181 p.